

## JADIDLARNING TARBIYAVIY QARASHLARINI MAKTAB AMALIYOTIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI

Abdusalomova Dildora Abduxoliq qizi

Termiz davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20046941>

**Annotatsiya.** Ushbu ishda jadid ma'rifatparvarlarining tarbiyaviy qarashlari, ularning pedagogik g'oyalari va zamonaviy maktab ta'limi amaliyotida qo'llash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan ilm-fan, axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar va zamonaviy bilimlarni uyg'unlashtirish g'oyalari bugungi ta'lim tizimi uchun ham dolzarb hisoblanadi. Tadqiqotda jadid pedagogikasining o'quvchi shaxsini shakllantirishdagi ahamiyati, innovatsion yondashuvlar bilan uyg'unligi va dars jarayoniga tatbiq etish yo'llari yoritiladi.

**Kalit so'z:** Jadidlar, tarbiya, pedagogik qarashlar, maktab amaliyoti, innovatsion ta'lim, milliy qadriyatlar, ma'rifat, o'quvchi shaxsi, modernizatsiya, metodika.

Jadid ma'rifatparvarlari Turkiston tarixida ta'lim va tarbiya sohasida tub burilish yasagan ilg'or ziyolilardir. Ular xalqni jaholatdan qutqarish, ilm-fanni rivojlantirish va milliy uyg'unlashni ta'minlashni asosiy maqsad qilib qo'yg'alar. Jadidlarning tarbiyaviy qarashlarida o'quvchining mustaqil fikrlashi, axloqiy yetukligi va zamonaviy bilimlarni egallashi muhim o'rin tutgan.

Bugungi kunda ta'lim tizimi modernizatsiyalashayotgan bir davrda jadidlarning pedagogik g'oyalari maktab amaliyotida samarali qo'llanilishi mumkin. Ularning ilg'or fikrlari interfaol metodlar, kompetensiyaviy yondashuv va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim bilan uyg'unlashib, o'quv jarayonini yanada samarali qiladi. Eng avvalo shunday savol tug'iladi: Jadidchilik nima uchun yuzaga keldi? Uning mohiyati nimada? Turkistonda paydo bo'lgan jadidchilikning o'ziga xos xususiyatlari paydo bo'lishi, taraqqiy topishi, jarayonlari va xotimasi qanday sodir bo'ladi?

Ma'lumki, ijtimoiy hayot tarzining muayyan davridagi holati jamiyat a'zolarining aksariyatini qoniqtirmay qoladi. Natijada ular ijtimoiy tuzumni o'zgartirish yoki uni to'g'ri, qotib qolgan holatdan chiqarish uchun yo inqilob qilish, yo isloh etish harakatiga tushadilar.

Jadidlar yod va o'lik sxolastikaga asoslangan an'anaviy islom ta'limini rad etib, ta'limning yangi usullarini, jumladan, o'rganishning faol shakllarini, bilimlarni amalda qo'llash va tanqidiy fikrlashni joriy etishga chaqirdilar. Ular talabalar nafaqat ma'lumotni eslab qolishlari, balki uni hayotda qo'llashlari kerak, deb hisoblashgan. Bundan tashqari, jadidlar milliy madaniyat va tilning ahamiyatiga e'tibor qaratdilar. Ular o'zbek tilini tarbiya vositasi sifatida rivojlantirish tarafdori bo'lib, bu sohada adabiy an'ananing shakllanishiga turtki bo'ldi. Jamiyat ehtiyojlariga qaratilgan dasturlari bilan jadid maktablari mamlakatni isloh qilish va modernizatsiya qilishga da'vat eta oladigan yangi, bilimli fuqarolarni tayyorlashni maqsad qilgan. Milliy ta'lim islohoti. Jadidlarning pedagogik g'oyalari O'zbekistonda milliy ta'limni isloh qilish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. XX asr boshidan jadidchilik harakati sezilarli madaniy-ijtimoiy hodisaga aylandi, uning tarafdorlari yangi ta'lim standartlari va tizimlarini joriy etishga intildilar. Bu jarayonning eng muhim bosqichlaridan biri an'anaviy madrasalar bilan birga faoliyat ko'rsatgan jadid maktablarining ochilishi bo'ldi. Bu maktablar o'quvchilarga fan asoslari va zamonaviy fanlarni o'rgatish bilan birga, ongli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga ham xizmat qildi. Madrasalardan farqli ravishda jadid maktablari yangi ta'lim tizimi doirasida faoliyat yuritib, dunyoviy ta'limga, o'rganiladigan fanlarga tanqidiy yondashishga urg'u bergan. Bu maktablarda

ta'lim o'zbek tilida olib borilgani til va madaniyatning ommalashishiga xizmat qilgan. Bundan tashqari, jadidlar o'z g'oyalarini targ'ib qilish uchun bosma nashrlardan faol foydalanganlar. O'zbek tilida jurnal va gazetalarning paydo bo'lishi yangi intellektual muhitni vujudga keltirdi va keng ommaga zamonaviy bilimlardan foydalanish imkonini berdi. Jadidlarning pedagogik qarashlarining yana bir muhim tarkibiy qismi bu qilish tabaqalashtirilgan ta'lim edi. Dastlab shuni ta'kidlash kerakki, jadidlar an'anaviy ta'lim tizimini isloh tarafdori bo'lib, u asosan bilimlarni yetkazishning og'zaki usullariga asoslangan va tez o'zgaruvchan jamiyat ehtiyojlarini qondirishga mos kelmaydi. Ular an'anaviy ta'lim modeli o'quvchilarning individual xususiyatlarini va ularning ehtiyojlarini hisobga olmaydi, deb hisoblashgan. Shu nuqtai nazardan jadidlar tabaqalashtirilgan ta'lim g'oyalarini ilgari surdilar, ta'lim jarayonlarini o'quvchilar tayyorlashning turli darajalariga moslashtirish zarurligini ta'kidladilar. Jadidlarning tabaqalashtirilgan o'qitishning asosiy argumenti har bir o'quvchining o'ziga xosligi, o'ziga xos qobiliyatlari, qiziqishlari va o'rganish uslubi borligidan iborat edi. Ularning ta'kidlashicha, yagona uslub va yondashuvlarga asoslangan ta'lim tizimlari hamma uchun sifatli ta'lim bera olmaydi.

Jadidlarning yuzaga kelishi ham muayyan ijtimoiy voqelikdan qoniqmaslik oqibatida sodir bo'lgandi. Birlari jahongir g'arb davlatlaridan xalqlarning diniy mansublik tuyg'usini jo'sh urdirgan holda kurash maydoniga kirib, ozodlikka erishish mumkin deb bildilar. Natijada tarixga "панисламизм" nomi bilan kirgan

g'arb jahongirlikiga qarshi kurash harakati yuzaga keladi. Boshqalari mazlum xalqlarni etnik jihatdan jipslashtirib milliy ozodlik yo'liga kirmoqchi bo'ldilar. Jadidlar ma'rifati haqida gap ketganda, dastavval qizimlik Ismoil Gaspirinskiyni (1352-1914) tilga olish kerak. U Rossiya musulmonlari orasida birinchi bo'lib maktabi usuli jadida ya'ni "yangi usul maktabi" ga asos soldi. Ma'lumki, islom olamida ham ta'lim va tarbiya tizimiga dastlab katta e'tibor bilan qaralgan. Musulmochilik qaror topganidan so'ng arab davlatlarida ta'limning ikki bosqichli tizimi yuzaga keladi:

Maktab va madrasa. Turkistondagi maktablarning aksariyati masjidlar, mozorlar yonidagi binolarda yoki xususiy kishilar hovlilarida bo'lgan. Masjid imomi yoki madrasani hatm gilgan kishilar maktabdorlik qilshgan. Maktablarda o'g'il bolalarni domla o'qitgan. Qiz bolalarni o'z uyida o'qitgan ayollarni otinoyi, otinbibi, bibihalifa, bibiotin kabi nomlar bilan atashgan. Maktablarda o'qitishning rasmiy dasturi bo'lgan emas. Shunday bo'lsa-da, odatda islom dini asoslari o'qitilgan, yozuv va arifmetikadan saboq berilgan. O'qish jarayoni arab xarfi va so'zarini so'ngra, Qur'onni arab tilda o'qitish va yodlashdan iborat bo'lgan. O'quvchi arab harflarining nomini hamda yozilishini o'rganish uchun ko'p vaqt mehnat qilgan.

O'quvchilar arab harflarini o'rganib olgandan keyingina Quronning ayrim suralarini hijjalab o'qishga tushgan. Quron suralarini o'qib tugatgan o'quvchilar uni to'liq yod olishga kirishgan. Bundan so'ng esa diniy kitoblarni o'qishga e'tiborlarini qaratishgan. Behbudiy o'z uyida ochgan "usuli jadid" maktabining butun moddiy harajatlarini o'z gardaniga oladi. "Padarkush"ning sahnaga qo'yilishidan kelgan asosiy daromadni Samarqand, Qo'qon, Namangan, Toshkentdagi "usuli jadid" maktablariga hadya qildi, bu maktablar uchun darslik va qo'llanmalarni tekinga bosib tarqatdi. Samarqanddagi birinchi musulmon kutubxona va qiroatxonaning asosiy mablag'i ham uning hisobidan chiqqan edi.

Munavvar Qori Abdurashidxon o'g'li "usuli savtiya" maktabiga ixlos bilan qarab, chor hukumati Turkiaton o'lkasidagi aholini qanday madaniy-ma'naviy uzlatda saqlayotganini va

undan qutilish choralari faqat maktab ta'lim-tarbiyasidagi keskin islohotga bog'liqligini to'g'ri tushungan holda chor hukumatining mustamlakichilik boshqaruv usuliga qarshi kurashda faollik ko'rsatdi: mana shu maqsad yo'lida Toshkentda ilg'or fikirli ziyolilar va turli guruhlardan iborat "Turon" jadidlar jamiyatini tashkil etdi.

Xulosa qilib aytganda, jadidlarimizning hozirgi kunda shu darajaga, ta'lim olishni taraqqiy etishiga qo'shgan xissalari juda katta desak adashmaymiz. Yuqorida ularning qoldirgan yuksak mazmunga ega bo'lgan g'oyalari bizgacha yetib kelganining ham sababi shunda Bu g'oyalarni yanada rivojlantirib, o'z kuchini yo'qotmaslikka xissa qo'shsak foydaliroq bo'lar edi.

### Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Мирзакаримова М. М. Умумтаълим фанларини тадбиркорликка йуналтириб уқитиш тизими //Science and Education. - 2020. - Т. 1. - №. 4. - С. 97-103.
2. МИРЗАКАРИМОВА МАХЛИЁХОН МАДАМИНЖОНОВНА (2022) "ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИККА ЙУНАЛТИРИБ УЎҚИТИШНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ", Novateur Publications, (1), pp. 1128. Available at: <http://novateurpublication.org/index.php/np/article/view/23> (Accessed: 26 August 2023).
3. Мирзакаримова М. М. Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тадбиркорликка йуналтириб уқитиш тизими //Science and Education. - 2020. - Т. 1. - №. 4. - С. 216-222.
4. Mirzakarimova M. M. The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes //Telematique. - 2022. - С. 7128-7131.
5. Mirzakarimova M. EFFECTIVENESS OF STUDENTS' ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES //Академические исследования в современной науке. - 2023. - Т. 2. - №. 8. - С. 92-94.
6. Madaminjonovna M. M. K. L. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES.
7. Madaminjonovna M. M. Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies //International Journal of Human Computing Studies. - 2023. - Т. 5. - №. 3. - С. 15-17.
8. Мирзакаримова М. М. ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL "INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY". - 2020. - Т. 1. - №. 1. - С. 63-65.
9. Mavlonova.R.A, Rahmonqulova.H.N, Matnazarova K.O, Shirinov.M.K, Hafizov .S. Umumiy pedagogika. Toshkent 2018.
10. Komilova, V. (2022). O'QITUVCHINING KOMMUNIKATIV QOBILİYATI. Scientific progress, 3(4), 1150-1155.
11. Abdullayeva, X. Y. (2022). O 'QITUVCHILARDA PEDAGOGIK MAHORAT TUSHUNCHASI KO 'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH. Academic research in educational sciences, 3(3), 349-351.